| <b>Kamolova Munajatxon Jaloldinovna</b>                                                                                                                                                                           |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari .....                                                                                                                                                | 259 |
| <b>Mamatova Aziza Bo'riboyevna</b>                                                                                                                                                                                |     |
| Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari....                                                                                                      | 262 |
| <b>Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich</b>                                                                                                                                                                       |     |
| Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini<br>korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....                                                                                     | 267 |
| <b>Maxkamova Dilafuz Aliyevna</b>                                                                                                                                                                                 |     |
| Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv .....                                                                                                                            | 271 |
| <b>Normamatova Kamola Gulmamat qizi</b>                                                                                                                                                                           |     |
| O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....                                                                                                             | 274 |
| <b>S. Sh. Azamatova</b>                                                                                                                                                                                           |     |
| Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari .....                                                                                                                               | 277 |
| <b>Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi</b>                                                                                                                                                                          |     |
| Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....                                                                                                          | 282 |
| <b>Xolova Mohigul Shavkatovna</b>                                                                                                                                                                                 |     |
| Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....                                                                                                         | 287 |
| <b>Xudoyberganov Atham</b>                                                                                                                                                                                        |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish .....                                                                                                          | 291 |
| <b>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi</b>                                                                                                                                           |     |
| Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление .....                                                                                                                               | 295 |
| <b>Кадирова Наргиза Азаматовна</b>                                                                                                                                                                                |     |
| Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов<br>на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка) .....                                                            | 298 |
| <b>Мамырбаева Дина</b>                                                                                                                                                                                            |     |
| Структура и стратегии развития предметных компетенций .....                                                                                                                                                       | 304 |
| <b>Наимова Мафтунабону Файзулложоновна</b>                                                                                                                                                                        |     |
| Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda morfologik kompetentlikni shakllantirish .....                                                                                                                              | 308 |
| <b>Ganiyeva Shodiya Azizovna</b>                                                                                                                                                                                  |     |
| Модель "4+1+1" как ключевой механизм в системе практической подготовки учителей музыки.....                                                                                                                       | 313 |
| <b>Мухитдинова Малохатхон Саиджабборовна</b>                                                                                                                                                                      |     |
| Tarbiya fanini o'qish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish .....                                                                                                                      | 317 |
| <b>Nazarova Nasiba Abdullayevna</b>                                                                                                                                                                               |     |
| Tarbiyachining kasbiy psixologik xususiyatlari.....                                                                                                                                                               | 320 |
| <b>Shamshetova Anjim Karamaddinovna</b>                                                                                                                                                                           |     |
| Boshlang'ich ta'limda tarbiya nazariyasi va metodologiyasi .....                                                                                                                                                  | 323 |
| <b>Bo'ronova Iroda Bo'ronovna</b>                                                                                                                                                                                 |     |



## TARBIYACHINING KASBIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Shamshetova Anjim Karamaddinovna**

O'zDJTU, Pedagogika va psixologiya kafedrası professori,  
psixologiya fanları doktori (DSc)

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining psixologik xususiyatlari ochib berilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning kasbiy o'zini o'zi anglash jarayoni, shuningdek, bu jarayonni takomillashtirish masalalari batafsil yoritilgan. Maqolada tarbiyachining shaxsiy sifatleri, kasbiy motivatsiyasi hamda bola shaxsini shakllantirishdagi psixologik omillar ilmiy asosda tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tarbiyachi xarakteri, bog'cha iqlimi, bola shaxsi, xulq-atvor, psixologik omillar, bola tarbiyasi.

**Abstract:** This scientific article reveals the psychological characteristics of preschool teachers. It provides an in-depth analysis of the formation and development of professional self-awareness among preschool educators within early childhood education institutions. The article focuses on the personality traits of teachers, their professional motivation, and the psychological factors influencing the development of the child's personality.

**Key words:** teacher's character, kindergarten climate, child's personality, behavior, psychological factors, child upbringing.

**Аннотация:** В данной научной статье раскрыты психологические особенности воспитателей дошкольных образовательных учреждений. Подробно рассмотрены вопросы формирования и совершенствования профессионального самосознания воспитателей в системе дошкольного образования. Особое внимание уделено личностным качествам воспитателя, его профессиональной мотивации и влиянию психологических факторов на развитие личности ребёнка.

**Ключевые слова:** характер воспитателя, климат детского сада, личность ребёнка, поведение, психологические факторы, воспитание ребёнка.

### KIRISH

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'limi bir qator ijobiy o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi insonparvarlik yondashuvlari shaxs rivojlanishini ta'minlashga va yangi ta'lim dasturlarini yaratishga bo'lgan yondashuvlar kelajak avlodni komil shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, barkamol avlod ta'lim-tarbiya jarayonining tarbiyachilar tomonidan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlashda tarbiyachilarning kasbiy mahorati hamda ularning malakasini oshirish jarayonini samarali tashkil etish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son<sup>1</sup> qarori o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilishini ko'zda tutgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son<sup>2</sup> qaroriga muvofiq, shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sog'lom, faol, to'laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o'sishida turli nuqsonlari bo'lgan

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarori: <https://lex.uz/docs/-3923110>



bolalarni, shuningdek, reabilitatsiya qilish va sog'lomlashtirishga muhtoj bolalarni o'qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan bir qator ishlar maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan bir qator maqsadli yo'l xaritalari ham ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning rivojlanganlik darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini aniqlay olish uchun ham ularda bolalar psixologiyasiga oid o'quv-metodik, didaktik materiallar va adabiyotlar bo'lishi lozim. Agar bog'cha davrining o'zida rivojlanishida jismoniy yoki xulqi og'ish holatlariga o'xshash belgilar kuzatilsa, darhol tarbiyachilar bola bilan individual ishlash malakalariga ega bo'lishi ham kerak. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ta'limining kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish, inklyuziv ta'lim, eng yangi reabilitatsiya va abilitatsiya usullarini keng joriy etish, ularning izchil ijtimoiylashuvini ta'minlash masalalari ko'ndalang bo'lib turibdi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachilar bog'cha muhitini sog'lomlashtirish, bolani bog'cha muhitiga moslashtirish muammosi hamda bolalar bilan til topishib to'g'ri munosabatlarni tashkil etish muammosi ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Hammamizga ma'lumki, bolalarni bog'cha sharoitlariga moslashish ko'pincha juda og'riqli va mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayonlarda bog'cha tarbiyachilaridan kuchli tajriba hamda iroda talab etiladi. Tarbiyachi bolaga bo'lgan munosabatlarida ehtiyotkorlikni oshirib, o'z vazifasini talab darajasida bajarmasalar, bola bog'chaga moslashish davrining o'zida psixologik zo'riqishlarni olishi tabiiydir.

Bizga ma'lumki, bolani bolalar bog'chasiga qabul qilish juda qiyin va mas'uliyatli davrdir. Bolaning bolalar bog'chasidagi yangi muhitga qanday moslashishi uning jismoniy va ruhiy holatiga bog'liq bo'ladi. Bolalar bog'chaga to'g'ri moslashuv jarayonlarini olib boruvchi ham tarbiyachi bo'ladi, lekin bog'cha bilan bog'liq psixologik to'siqlarni to'g'ri tahlil qilishi, bolalarga bog'chaga borish lozimligini ota-onalari ham tushuntirishlari kerak. Bola uchun onasidan ma'lum uzoq vaqt ajralish bosqichi, begonalar bilan ma'lum muddat qolishi bolani stressga ham solib qo'yadi. Bu o'z navbatida bolaning immun tizimidagi zaiflikni keltirib chiqarsa, sharoitlardagi noqulaylik psixologik to'siqlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, bu esa bola xulq-atvorida salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bolalarga katta yoshdagilar, ota-onalar muloqoti va xatti-harakatlarning yangi shakllarini yaratilishi ma'lum muddat xavotirlarni kuchaytiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachining shaxs xususiyatlari, shaxslararo munosabatlari va xulq-atvori bola shaxsiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi. Tarbiyachilarning kasbiy faoliyat motivatsiyalari, kommunikativ tolerantligi, kasbiy xususiyatlari, shaxslararo munosabatlardagi pozitsiyasi, o'zini o'zi kasbiy-pedagogik rivojlantirishga tayyorligi hamda kasbiy pedagogik faoliyatga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash zarurati tug'ilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarning kasbiy o'zini o'zi anglashini shakllantirish va takomillashtirishning ilmiy va amaliy muammosi dolzarb hisoblanadi.

Kasbiy kompetensiyani o'qituvchining bolalar, hamkasblar bilan samarali o'zaro munosabatlarni tashkil etish va insonparvarlik qadriyatlarini hamda ehtiyojlariga asoslangan bilim va ko'nikmalar darajasi sifatida hisobga olgan holda, uning rivojlanishining muvaffaqiyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillarni yanada yaxlitroq ko'rsatish kerak. Bunday ta'sirning ijobiy va salbiy parametrlarini aniqlash bo'yicha aniq tadqiqot ishlarini amaliyotga tatbiq qilishimiz lozim.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixolog olimlar mutaxassisning kasbiy faoliyati samaradorligini o'lchashning individual shaxsiy motivatsiyasini, yo'nalishini, kompetensiyasini kuchli psixologik omillar deb hisoblashadi.

Psixologlardan L. S. Vigotskiy, A. Maslou, K. Rodgers va boshqalar bola shaxsining aqliy rivojlanishi nazariyalarida maktabgacha yoshdagi o'qituvchining kasbiy mahoratiga erishish va takomillashtirishning psixologik omillari muammosini o'rganish uchun ilmiy shart-sharoitlarni ko'rib borish lozim, degan ilmiy fikrlarini ilgari suradi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ushbu mavzu doirasida tarbiyachilarning kasbiy psixologik xususiyatlarini aniqlash, ularning shaxsiy sifatlari, motivatsiyasi va kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishga qaratilgan. Ma'lumotlar empirik kuzatish, suhbat, so'rovnomalar va psixodagnostik testlar orqali to'plandi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar o'rtasida individual suhbatlar o'tkazilib, ularning kommunikativ, emotsional va refleksiv holatlari tahlil qilindi. So'rovnomalar yordamida tarbiyachilarning o'z kasbiga bo'lgan munosabati, o'zini o'zi rivojlantirishga intilishi hamda bolalar bilan muloqotdagi psixologik yondashuvlari o'rganildi. Olingan ma'lumotlar sifat (kontekstual tahlil) va miqdoriy (statistik ko'rsatkichlar) jihatdan tahlil qilinib, natijalar taqqoslash usuli orqali umumlashtirildi. Shuningdek, kuzatuv va intervyu natijalari psixologik tahlil mezonlariga asoslangan holda qayta ishlanib, xulosalar chiqarildi. Natijada tarbiyachilarning kasbiy o'zini anglash, muloqot madaniyati va hissiy barqarorligining bolalar psixologik rivojlanishiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi shaxsining individual psixologik xususiyatlari, ya'ni tarbiyachining jinsi, yoshi, shaxsiy xususiyatlari, kasbiy salomatlikning rivojlanish darajasi, samarali muloqotlarni olib borishi jiddiy ahamiyatga ega ekanligini ham bildirib o'tishadi.

Bog'cha tarbiyachining o'quv faoliyati parametrlarini tahlil qilish, uning maxsus sharoitlarini hisobga olgan holda, bir qator ko'rsatkichlarni – harakatchanlik, oldindan bilish qobiliyati, refleksivlik, subyektivlik, bag'rikenglik, o'zini o'zi boshqarish va uning o'zini o'zi rivojlantirish sababi, harakatlantiruvchi kuchi, manbasini oldindan aniqlashga imkon berdi. Shaxslararo muloqotda konstruktiv munosabatlarni va kasbiy faoliyat samaradorligini amalga oshirishni ta'minlash ishlarini maqsadli qo'llab-quvvatlash haqidagi taklif va xulosalarni bildirishgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, shart-sharoitlari, bog'cha bolalari bilan tarbiyachining munosabatlariga mo'ljallangan o'quv-uslubiy qo'llanmalar keng ko'lamli xorij psixologlari tomonidan tatbiq etilgan.

Maktabgacha ta'lim tarbiyachi-pedagoglari yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishdagi zarur majburiyatlar buyuk mutafakkirlar asarlarida juda katta urg'u berilganligining guvohi bo'ldik, ularning fan nasihatlarini hozirgi kundagi ta'lim talablariga ham mos keladi.

Tadqiqotimiz mavzusiga mos tarzda barcha ilmiy izlanishlarda bog'cha ta'limiga oid tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy faoliyati samaradorligini belgilovchi mezonlari, omillari psixologik jihatdan yetarlicha ochib berilmagan.

Tadqiqotlarda tarbiyachi bilan bolalarning o'zaro munosabati psixologik tadqiqotlarda o'rganilgan bo'lsa-da, uni tadqiq etishni muntasil va turli milliy muhitlarda amalga oshirishga zarurat mavjud. Tarbiyachi-pedagoglar bolaga munosabat, madaniyat, ijodkorlikni qadrlashni, bolalarning shaxsiy rivojlanishi, o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini qo'llab-quvvatlashi, insonparvar pozitsiyani namoyon etishi, bolalarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishini saqlashi, bolalarni tarbiyalash va o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish bo'yicha pedagogik faoliyatni amalga oshira olishi, o'z-o'zini tarbiyalash va shaxsiy o'sishini ta'minlab borishi maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. – <https://lex.uz/docs/4545884>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. – <https://lex.uz/docs/5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmoni. – <https://lex.uz/docs/6476175>
4. Астапов В. И. Определение готовности детей к обучению в школе. – М., 1991. – 157 с.
5. Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – М., 1968. – 464 с.
6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik xizmat. Fan dasturi. Mas'ullar: M. N. Ag'zamova, M. Q. Razzokova. – TDPU, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.